


JOURNAL OF **INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS**



Vol. 1 No. 7 (2025)

Publisher

D-PRESS SERVICES



KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH LOYIHALARI ORQALI AHOLINING MOLIYAVIY FAROVONLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumaniyozov Siroj Azimboy o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrası o‘qituvchisi.
E-mail: jumaniyozov.s@inbox.ru



ANNOTATION:

Mazkur maqolada kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar chuqur o‘rganiladi, shuningdek, xorijiy mamlakatlar, xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya kabi davlatlarning muvoffaqiyatli tajribalari tahlil qilinadi. Bu davlatlarda qo‘llanilgan samarali mexanizmlar va amaliy usullar O‘zbekiston sharoitida tatbiq qilinishi mumkin bo‘lgan model sifatida o‘rganiladi.

KEYWORDS:

Kambag‘allikni kamaytirish, muvoffaqiyatli tajribalar, chora-tadbirlar, model, samarali mexanizmlar.

Accepted Date:

November 25, 2025,

Published Date:

November 30, 2025

Journal Website:

<https://d-pressa.com/index.php/jisn/issue/view/jisn7>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

Kirish

Rivojlanayotgan

mamlakatlarda kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan loyihalar va dasturlarni chuqur o'rganish, ularning jamiyat farovonligiga, iqtisodiy o'sishga va ijtimoiy barqarorlikka ko'rsatgan real ta'sirini kompleks tahlil qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, mavjud tashabbuslarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ilmiy asoslangan usullar yordamida baholash, mavjud yutuq va muammolarni aniqlash, ularning uzoq muddatli natijalarini tahlil qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlovchi samarali strategiyalarni ishlab chiqish ham muhim yo'nalishlardan biridir.

Tadqiqot orqali aholining hayot sifati ko'rsatkichlari, ularning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki, bandlik darajasi, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, moliyaviy resurslarga kirish darajasi kabi omillar chuqur o'rganiladi. Bunday kompleks yondashuvlar orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni mehnat bozorida faol ishtirok etishga undash, jamiyatda teng imkoniyatlarni yaratish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga hissa qo'shish ko'zda tutiladi.

Kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, bu borada erishilayotgan natijalarni chuqur tahlil qilish, mavjud dasturlarning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash asosida yanada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, kambag'allik — bu shaxs yoki oilaning yashash uchun zarur bo'lgan asosiy ehtiyojlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi) qondirish uchun yetarli moliyaviy resurslar yoki imkoniyatlarga ega bo'lmalik holati bo'lib, bu nafaqat daromadning pastligi, balki jamiyatda to'laqonli ishtirok etish imkoniyatlarining cheklanganligi, tanlov erkinligining yo'qligi va ijtimoiy himoyasizlikni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar va siyosiy strategiyalarning asoslanganligini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, ijtimoiy tenglik va inklyuziv o'sishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasida aholining bandligi 2024 yil avgust oyi ma'lumotlariga ko'ra bandligi 1-jadvalda ko'rsatilgan

1-jadval.

**O'zbekiston respublikasida aholining bandligi 2020-2024-yillar
(hududlar) kesmida (%)¹**

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	66	67	67,2	67,9	68,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	62	61,1	61,6	62,9	63,5
Andijon viloyati	66,5	68,2	69,5	70,6	70,7
Buxoro viloyati	68,3	67,2	67,2	68,7	68,6
Jizzax viloyati	66,2	67,5	66,2	66,3	66,7
Qashqadaryo viloyati	60,9	62,2	61,9	61,9	64,9
Navoiy viloyati	66,8	68,3	67,7	69,8	70,1
Namangan viloyati	65	65,5	64,8	65,9	66,8
Samarqand viloyati	63,2	63,7	64,7	65	64,8
Surxondaryo viloyati	63,9	64,5	64,2	63,8	63,4
Sirdaryo viloyati	64,8	64,5	64	63,8	65,3
Toshkent viloyati	68,2	72,4	71	72,2	72,3
Farg'ona viloyati	65,1	66,2	67,1	68,4	68
Xorazm viloyati	63,7	64	64,7	66,9	66,5
Toshkent shahri	81,7	81,3	82,5	82,3	81,5

2024-yil avgust holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholining bandlik darajasi 68,3 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2020-yildagi 66 foiz bilan solishtirilganda ijobiy o'sishni aks ettiradi. Aholining bandligi yildan-yilga barqaror oshib bormoqda, bu esa mehnat bozori faoliyati va iqtisodiy imkoniyatlarning kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori bandlik darajasi Toshkent shahrida (81,5%), Toshkent viloyatida (72,3%) hamda Andijon viloyatida (70,7%) qayd etilgan. Bu hududlarda

sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi va tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajada rivojlangani bandlik ko'rsatkichlarining ortishiga xizmat qilgan.

Aksincha, eng past bandlik darajasi Qashqadaryo viloyatida (64,9%), Qoraqalpog'iston Respublikasida (63,5%) va Surxondaryo viloyatida (63,4%) kuzatilmoqda. Bu holat ushbu hududlarda ish o'rinlari yetishmovchiligi yoki iqtisodiy faollikning pastligidan dalolat beradi.

¹ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

Navoiy, Farg'ona, Buxoro va Xorazm viloyatlarida ham bandlik darajasi nisbatan yuqori bo'lib, yildan-yilga o'sish kuzatilmoqda. Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida esa bandlik ko'rsatkichlari barqarorlikka ega bo'lsa-da, sezilarli o'sish sur'atlari mavjud emas.

Umuman olganda, O'zbekiston bo'yicha bandlik darajasi ijobiy tendensiyaning namoyon etilmoqda, biroq ayrim hududlarda mehnat bozorini rag'batlantirish, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy

faoliyatni kengaytirishga qaratilgan qo'shimcha choralar talab etiladi.

2020–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar hajmi yildan-yilga barqaror o'sib borgan. Bu o'sish mamlakatda iqtisodiy faoliyatning kengayib borayotganidan, daromad manbalarining diversifikatsiyalashayotganidan va turmush darajasining yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

2-jadval

**Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi 2020-2024yillar
(hududlar) kesimida ming so'mda²**

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	12595,9	15421,7	18373,9	20764,5	24111,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9815,9	11731,8	13779,1	15037,5	16858
Andijon viloyati	11237,6	13449,7	16443,6	19236,1	21926,3
Buxoro viloyati	15338,7	18910	22320,7	24267,7	27508
Jizzax viloyati	11363,9	13668,5	15567,4	17389,2	19435,1
Qashqadaryo viloyati	10607	12597,9	15054,4	16366,7	18473,5
Navoiy viloyati	20916,9	25887,5	28358,1	32537	38112,3
Namangan viloyati	9731,5	11915,5	14415,1	15291,1	16849
Samarqand viloyati	10827,9	13231,2	15721	16701,5	19215,4
Surxondaryo viloyati	10091,2	12282,4	15031,9	16205,8	17880
Sirdaryo viloyati	11349,5	13185,1	15028,4	16954,9	19036,5
Toshkent viloyati	13717,7	16957,8	19122,6	21563,1	25123,3
Farg'ona viloyati	9223,5	11741	14350,6	17320,7	19119,9
Xorazm viloyati	12674	16292,2	20155,2	20509,2	23410,8
Toshkent shahri	26334,9	31502	38143,6	47183,4	60594,4

² <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

2020 yilda O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi 12,595.9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 24,111.9 ming so'mga yetgan, ya'ni 1,9 barobarga o'sgan. Hududlar kesimida ham ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq ularning o'sish sur'atlari va darajalari bir xilda emas.

Eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida qayd etilgan: 2020 yilda 26,334.9 ming so'm bo'lgan bu ko'rsatkich 2024 yilda 60,594.4 ming so'mga yetgan. Bu hudud iqtisodiy salohiyati, ishbilarmonlik muhiti va xizmatlar sohasining kengligi hisobiga boshqa hududlardan ancha ilgari lab ketgan.

Navoiy viloyatida ham yuqori daromadlar qayd etilgan: 2020 yilda 20,916.9 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 38,112.3 ming so'mga yetgan. Bu viloyatda sanoat ishlab chiqarishining yuqori ulushi asosiy omil sifatida ko'zga tashlanadi.

Eng past daromadlar ko'rsatkichi Farg'ona, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida kuzatilmoqda. Masalan, Farg'ona viloyatida 2020 yilda 9,223.5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu raqam 19,119.9 ming so'mga yetgan. Har qancha o'sish bo'lmasin, bu ko'rsatkichlar hali ham respublika o'rtacha darajasidan pastda.

Umuman olganda, barcha hududlarda aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining yildan-yilga ortib borayotgani ijobiy holat bo'lib, iqtisodiy o'sish va aholining farovonlik darajasining

oshib borayotganini aks ettiradi. Biroq ayrim viloyatlar o'rtasidagi tafovutlar katta bo'lib, bu hududiy tengsizlik muammosini hal qilish va iqtisodiy imkoniyatlarni yanada muvozanatli taqsimlash zarurligini ko'rsatadi bunda kambag'allikni turlarini, sabablari va unga qarshi kurashish metodlarini o'rganishni talab qiladi. Biz bu tadqiqotlar jarayonida kambag'allikni quyidagi turlarini ko'rib chiqamiz:

Mutlaq kambag'allik (Absolute Poverty): Bu eng minimal yashash ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan daromad darajasidan past bo'lgan holat. Ko'pincha bu har bir kun uchun ma'lum bir miqdordan (masalan, Jahon banki tomonidan belgilangan kuniga 2.15 AQSh dollari) kamroq pulga yashashni anglatadi. Mutlaq kambag'allik, asosan, oziq-ovqat, suv, boshpana va kiyim-kechak kabi asosiy ehtiyojlarning jiddiy yetishmasligi bilan tavsiflanadi.

Nisbiy kambag'allik (Relative Poverty): Bu jamiyatdagi umumiy turmush darajasiga nisbatan kambag'allikni bildiradi. Ya'ni, shaxs yoki oilaning daromadi jamiyatdagi o'rtacha daromaddan (yoki median daromaddan) ma'lum bir foizdan past bo'lsa, u nisbiy kambag'al hisoblanadi. Nisbiy kambag'allik ko'proq ijtimoiy tengsizlik va jamiyat ichidagi farqlar bilan bog'liq.

Ko'p o'lchovli kambag'allik (Multidimensional Poverty): Bu faqat daromadga asoslanmay, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, turmush sharoitlari (toza ichimlik suvi, sanitariya, elektr energiyasi, uy-joy, mulk, oshxona yoqilg'isi) kabi

omillarni ham hisobga oluvchi kengroq tushunchadir. Ushbu yondashuv insonlarning qanday imkoniyatlardan mahrumligini aniqlashga yordam beradi va

davlatlar uchun maqsadli siyosat ishlab chiqish imkonini beradi.

Kambag'allikning sabablari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va hatto tabiiy omillarni o'z ichiga oladi.

3 - jadval

Kambag'allikni qisqartirishga ta'sir qiluvchi omillar

Iqtisodiy sabablar	Ishsizlik, past maosh, iqtisodiy o'sishning sustligi, inflyatsiya, resurslarning notekis taqsimlanishi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi.
Ijtimoiy sabablar	Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga cheklangan kirish, oilaviy muammolar (masalan, to'liq bo'lmagan oilalar, katta oilalar), nogironlik, yoshga bog'liq muammolar (qariyalar, bolalar).
Siyosiy sabablar	Noto'g'ri siyosat, korrupsiya, ziddiyatlar, siyosiy beqarorlik, ijtimoiy himoya tizimining yetishmasligi.
Tabiiy va atrof-muhit sabablari	Tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, suv toshqinlari), iqlim o'zgarishi, resurslarning kamayishi.

Kambag'allikni tushunish va unga qarshi kurashish uchun ushbu omillarni kompleks tahlil qilish muhimdir.

«Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir», Iqtisodiyot qonunlariga asosan, «kambag'allik kambag'allikni keltirib chiqaradi». Mazkur jarayon bir necha sabablarga ko'ra sodir bo'ladi.

Birinchidan, daromadlari past mamlakatlar sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash uchun yetarlicha pul sarflay olishmaydi, kambag'al aholi esa sifatli pullik ta'lim va tibbiyot xizmatlarga qurbi yetmasligi

sababli inson salohiyati pasayib, kambag'allikdan qochib qutula olmaydilar.

Ikkinchidan, kambag'al aholining daromadlari pasayib borgan sari, iste'mol bozorining sig'imi mutanosib ravishda kichrayib boradi va buning natijasida sanoat mollari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ayniqsa, xizmatlarga bo'lgan talab pasayib boradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi, budget daromadlarini kamaytiradi va kambag'allarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash imkoniyatini kamaytirib yopiq siklik jarayon ko'rinishiga keladi.

Uchinchidan, aksariyat hollarda kambag'allarning dunyoqarashi daromad yuqori bo'lganlardan farq qiladi. Yuqorida aytib o'tilgan sabablarga ko'ra, ular

orasidan ijodkor va tadbirkorlik qobiliyatiga ega insonlarning yetishib chiqishi ehtimoli kamroq. Shuningdek, odatda kambag'al oila a'zolari orasida jinoyatchilik ko'rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar mamlakatda inson salohiyatini rivojlantirishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va aholining iqtisodiy faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

Kambag'allik jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qilib, ijtimoiy adolatsizlik, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi, shuningdek, hayot sifatining pasayishi kabi bir qator salbiy oqibatlariga olib keladi. Shu sababli, kambag'allikni kamaytirish uchun ishlab chiqilgan loyiha va dasturlar iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash va aholi turmush darajasini ko'tarishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

BMT tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (BRM) birinchi maqsad sifatida kambag'allikni butunlay yo'q qilish belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun rivojlanayotgan davlatlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari, o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini faol ravishda amalga oshirmoqdalar. O'zbekiston uchun ham kambag'allikni qisqartirish aholi farovonligini ta'minlash yo'lida muhim vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda ijtimoiy himoya, bandlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi turli sohalarda ko'plab loyihalar amalga

oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar, asosan, aholining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, kambag'allikni kamaytirish yo'lida sezilarli ijobiy natijalarga erishishni maqsad qilgan.

Kambag'allikni kamaytirish maqsadidagi loyihalar aholi turmush darajasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular yangi ish o'rinlari yaratilishiga, daromadlar ko'payishiga va ijtimoiy himoyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Buning natijasida milliy daromadning adolatli taqsimlanishi ta'minlanib, iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish uchun muhim qadamlar qo'yiladi. Ushbu masalalar kambag'allikni qisqartirish strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muhim asos hisoblanadi.

Kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini ta'minlash masalasi bugungi kunda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb masala bo'lib, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lidagi asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, bu mavzuda olib borilayotgan tadqiqotlar va dasturlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichlariga olib kelishi mumkin. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar va maqsadlar belgilangan. Ushbu strategiya mamlakatda

kambag'allikni keskin kamaytirishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilaydi, shuningdek, 2026-yilga qadar kambag'allik darajasini 2022-yilga nisbatan ikki barobarga qisqartirish va 2030-yilgacha uni yanada kamaytirish vazifasini qo'yadi. Bunda, ehtiyojmand aholining daromadlarini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va mehnat bilan bandlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Kambag'allikni qisqartirish loyihalarining nazariy iqtisodiy modellari.

So'nggi besh yil ichida (2020-2025 yillar) kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan nazariy iqtisodiy modellar bir qancha yangi yondashuvlar va oldingi nazariyalarni chuqurlashtirish bilan boyitildi. Asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

1. Xulq-atvor iqtisodiyoti (Behavioral Economics) va kambag'allik:

Kambag'allikni tushunishda xulq-atvor iqtisodiyoti tamoyillari ko'proq qo'llanila boshlandi. Bu yondashuv, kambag'al aholining qashshoqlik sharoitida qabul qiladigan qarorlariga (masalan, pulni boshqarish, investitsiya qarorlari, sog'liqni saqlashga munosabat) psixologik omillarning (stress, kognitiv yuk, kelajakni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar) ta'sirini chuqur o'rganadi.

Ushbu yo'nalishdagi muhim nazariy model **"Kognitiv Yuk va Qashshoqlik tuzog'i modeli"** deb nomlanadi. Modelning asosiy g'oyasi

Sendhil Mullainathan va Eldar Shafirning "Scarcity: Why Having Too Little Means So Much" (Kamchilik: Nega oz bo'lish ko'p narsani anglatadi) kitobida ilgari surilgan tushunchalarga asoslanadi. Ular ta'kidlaydiki, kambag'allik nafaqat resurslarning kamligi bilan bog'liq, balki kognitiv yukning (ingliz tilida: cognitive load) ortishi bilan ham bevosita aloqador. Bu yuk, kambag'al insonlarning ratsional va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularni "qashshoqlik tuzog'i"da qoldirib, undan chiqishni qiyinlashtiradi.

Modelning ishlash printsiplari shundan iboratki, doimiy moliyaviy bosim va kamchilik haqidagi tashvishlar miyaning kognitiv resurslarini egallab oladi, bu esa uzoq muddatli rejalashtirish, ta'limga sarmoya kiritish yoki yangi ko'nikmalarni egallash kabi samarali qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi. Natijada, kambag'al insonlar "qashshoqlik tuzog'i"da (poverty trap) qolib ketishadi, chunki ular cheklangan imkoniyatlar doirasida "siquv" ostida optimal bo'lmagan qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladilar.

Kambag'allikni qisqartirish loyihalari ushbu modeldan kelib chiqib, moliyaviy maslahatlar, moliyaviy vositalarning soddaligi, avtomatik jamg'arish mexanizmlari yoki shartli pul o'tkazmalari (Conditional Cash Transfers - CCTs) kabi "nudge" (turtki berish) elementlarini o'z ichiga olishi kerak. Bu kognitiv yukni kamaytirishga va insonlarning uzoq muddatli

farovonligini ta'minlaydigan qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

2. Iqlim o'zgarishi va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik modeli :

Bu model iqlim o'zgarishining kambag'allikka ta'siri (masalan, fermer xo'jaliklariga zarar, resurslarning kamayishi, migratsiya) va kambag'allikning iqlimga ta'siri (masalan, resurslardan nooqilona foydalanish) kabi ikki tomonlama bog'liqlikni tahlil qiladi. Ushbu modellar iqlimga moslashuv va migratsiya strategiyalarini kambag'allikni qisqartirish loyihalariga integratsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Bu boradagi muhim nazariy yondashuvlardan biri "Qashshoqlik-Iqlim Zaifligi Spiral modeli" (Poverty-Climat Vulnerability Spiral Model) deb nomlanadi. Ushbu model kambag'allik va iqlim o'zgarishi o'rtasidagi ikki tomonlama aloqani, ya'ni birining boshqasini kuchaytiradigan "spiral" effektini tushuntiradi. Modelning asosida Tobinning "Qashshoqlik tuzog'i" (Poverty Trap) kontseptsiyasi va ekologik iqtisodiyotdagi zaiflik nazariyalari yotadi.

Modelning ishlash printsiplari shundan iboratki kambag'al jamoalar iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga (masalan, qurg'oqchilik, suv toshqinlari, hosilning yo'qolishi) nisbatan ancha zaif bo'ladilar, chunki ularda moslashish yoki tiklanish uchun resurslar (sug'urta, jamg'arma, diversifikatsiyalangan iqtisodiy faoliyat) yetarli emas. Iqlim o'zgarishlari ularni yanada qashshoqlashtiradi, bu esa ularning keyingi iqlim zarbalariga nisbatan

zaifligini oshiradi. Shu bilan birga, resurs cheklovlari ba'zan kambag'al aholini atrof-muhitni yomonlashtiruvchi amaliyotlarga majbur qiladi (masalan, o'tin uchun o'rmonlarni kesish), bu esa iqlim o'zgarishini yanada tezlashtiradi va spiralni davom ettiradi.

Bunday loyihalar nafaqat iqlim o'zgarishiga moslashish (masalan, qurg'oqchilikka chidamli ekinlar, erta ogohlantirish tizimlari), balki aholining iqtisodiy diversifikatsiyasini oshirish, sug'urta mexanizmlarini yaratish va barqaror resurs boshqaruvi amaliyotlarini joriy etish orqali ham kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

3. Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarning inklyuzivligi (tenglikgi) modeli:

So'nggi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlar (mobil banking, raqamli to'lovlar), elektron tijorat platformalari va onlayn ta'limning kambag'al aholi uchun inklyuzivligini ta'minlashga qaratilgan modellar rivojlandi. Bu modellar raqamli bo'linishni kamaytirish va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu yo'nalishdagi asosiy nazariy yondashuvlardan biri "Raqamli Ko'priklar va Inklyuziv Iqtisodiy Kengayish modeli" (Digital Bridge and Inclusive Economic Expansion Model) deb nomlanadi. Modelning asosiy g'oyasi "raqamli bo'linish" (digital divide) tushunchasiga asoslanadi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish imkoniyatini ta'minlash

kambag'al aholining iqtisodiy faoliyatga inklyuziv tarzda jalb qilinishining asosiy vositasi ekanligini ta'kidlaydi.

Modelning ishlash printsiplari shundan iboratki AKTga kirish (internet, smartfonlar) va raqamli savodxonlik (foydalanish ko'nikmalari) kambag'al aholi uchun moliyaviy xizmatlarga (mobil banking, onlayn to'lovlar), bozorlarga (elektron tijorat), ta'lim resurslariga (onlayn kurslar) va yangi ish imkoniyatlariga (masalan, faol iqtisodiyot) kirish uchun "ko'priq" vazifasini o'taydi. Bu esa ularning daromadlarini oshirishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga va iqtisodiy jihatdan faollashishiga olib keladi.

Kambag'allikni qisqartirish loyihalari raqamli infratuzilmani rivojlantirishga (masalan, qishloq joylarida internetga kirish), raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarga, kichik biznes uchun elektron tijorat platformalarini qo'llab-quvvatlashga va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchilarni tayyorlashga e'tibor qaratishi kerak.

4. *Ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy kapitalning kambag'allikka ta'siri modeli:*

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning (ham rasmiy, ham norasmiy) kambag'al aholining moliyaviy resurslarga, ma'lumotlarga va ish imkoniyatlariga kirishiga ta'siri chuqur o'rganildi. Bu modellar ijtimoiy kapitalni (masalan, ishonch, jamiyat normalari va o'zaro aloqalar) qashshoqlikdan chiqishda muhim omil sifatida ko'rsatadi.

Bu sohadagi asosiy nazariy model "Ijtimoiy Kapital va Hayotiy Imkoniyatlar modeli" (Social Capital and Livelihood Opportunities Model) deb ataladi. Uning asosiy g'oyasi Pierre Bourdieu, James Coleman va Robert Putnam kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy kapital tushunchasiga tayanadi. Model kambag'al aholi orasidagi ijtimoiy aloqalar, o'zaro ishonch va jamiyatdagi qabul qilingan normativlarning ularning iqtisodiy imkoniyatlariga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. Ya'ni, insonning ijtimoiy aloqalari qanchalik mustahkam bo'lsa, u shunchalik ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Modelning ishlash printsiplari shundayki, Ijtimoiy kapital (masalan, kuchli oilaviy aloqalar, jamoaviy guruhlar, o'zaro yordam tarmoqlari) kambag'al insonlar uchun informatsiya, mikrokreditlar, ish imkoniyatlari va qiyinchiliklarga qarshi himoya kabi muhim resurslarga kirishni osonlashtiradi. Masalan, bir kishi qiyin ahvolga tushganda, ijtimoiy tarmog'i orqali yordam topishi yoki yangi ish haqida ma'lumot olishi mumkin. Aksincha, ijtimoiy kapitalning pastligi resurslarga kirishni cheklab, kambag'allikni kuchaytirishi mumkin.

Kambag'allikni qisqartirish loyihalari o'z-o'ziga yordam guruhlarini (Self-Help Groups - SHGs), jamoat asosidagi tashabbuslarni, ishlab chiqaruvchilar uyushmalarini, mentorlik dasturlarini qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy kapitalni mustahkamlashi kerak. Bu guruh

a'zolariga umumiy muammolarni hal qilishda va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishda yordam beradi.

5. Tengsizlik va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikning modeli:

So'nggi 5 yilda tengsizlikning kambag'allikka ta'siri haqidagi modellar yanada murakkablashdi. Bu modellar shuni ko'rsatadiki, yuqori tengsizlik iqtisodiy o'sishni sekinlashtirib, kambag'allikni kamaytirishni qiyinlashtiradi. Aksincha, kambag'allik ham imkoniyatlarga kirishdagi farqlar orqali tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu modellar nafaqat kambag'allikni qisqartirish, balki daromadlar va imkoniyatlar tengsizligini ham kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvlarni talab qiladi.

Bu yo'nalishdagi muhim nazariy yondashuvlardan biri "Imkoniyatlar Tengsizligi va Qashshoqlik Spiral modeli" (Inequality of Opportunity and Poverty Spiral Model) hisoblanadi. Ushbu model Amartya Senning "Imkoniyatlar yondashuvi" (Capability Approach) va Jon Roulsoning "Adolat nazariyasi" (Theory of Justice) kabi g'oyalariga tayanadi. Modelning markazida faqatgina daromad tengsizligi emas, balki asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, toza suv va boshqa asosiy xizmatlarga kirishdagi tengsizliklarning kambag'allikni qanday kuchaytirishi yotadi.

Modelning ishlash printsiplari shundan iboratki, agar jamiyatda asosiy imkoniyatlarga (masalan, sifatli ta'lim yoki sog'liqni saqlash) kirishda jiddiy tengsizliklar mavjud bo'lsa, kambag'al oilalarning farzandlari yuqori daromadli oilalarning farzandlariga nisbatan sezilarli kamchiliklarga duch kelishadi. Bu "imkoniyatlar tengsizligi" avlodlararo kambag'allik uzatilishiga olib keladi, chunki kam ta'minlangan oilalardan chiqqanlar uchun ijtimoiy zinapoya bo'ylab ko'tarilish deyarli imkonsiz bo'ladi. Tengsizlikning yuqori darajasi iqtisodiy o'sishni ham sekinlashtirishi mumkin, chunki u iste'molni kamaytiradi va inson kapitalining to'liq salohiyatidan foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Loyihaga tatbiqi: Kambag'allikni qisqartirish loyihalari nafaqat daromadlarni oshirishga, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, sanitariya, toza suv va boshqa asosiy xizmatlarga inklyuziv kirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu har bir insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish va kambag'allikdan chiqib ketish uchun zarur bo'lgan "qobiliyatlar"ni rivojlantirishga yordam beradi.

Kambag'allikni qisqartirish loyihalarining moliyaviy farovonlikka ta'sir mexanizmlari³

Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan loyihalar aholining moliyaviy farovonligini oshirishda murakkab va ko'p qirrali mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Bu ta'sir nafaqat bevosita iqtisodiy foydalar, balki ijtimoiy kapitalni mustahkamlash, imkoniyatlar yaratish va xavflarni kamaytirish

orqali ham namoyon bo'ladi. Quyida ushbu mexanizmlarni atroflicha ko'rib chiqamiz:

Kambag'allikni qisqartirish loyihalarining moliyaviy farovonlikka ta'sir mexanizmlari



1-rasm. Kambag'allikni qisqartirish loyihalarining moliyaviy farovonlikka ta'sir mexanizmlari

DAROMADLARNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalar (yangi texnologiyalar joriy etish, o'g'itlar va urug'lar bilan ta'minlash) hosildorlikni oshirishga olib keladi, bu esa fermerlarning daromadlarini ko'paytiradi. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish loyihalari korxonalar samaradorligini oshirishi mumkin.	Bozorlarga kirishni yaxshilash: Loyihalar ishlab chiqaruvchilarga yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini berishi mumkin. Bu yo'l infratuzilmasini yaxshilash, savdo ko'nikmalarini o'rgatish yoki kooperativlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Natijada, ular o'z mahsulotlarini qulayroq narxda sotishlari va daromadlarini oshirishlari mumkin.	Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Loyihalar doirasida beriladigan kasbiy ta'lim va treninglar ishtirokchilarning malakasini oshiradi, ularni mehnat bozorida raqobatbardoshroq qiladi va yuqori haq to'lanadigan ish o'rinlariga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.
--	--	---

2-rasm. Daromadlarni oshirish mexanizmlari

XARAJATLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI

Asosiy xizmatlarga kirishni yaxshilash:

Sog'liqni saqlash, ta'lim, toza ichimlik suvi va sanitariya kabi asosiy xizmatlarga kirishni ta'minlovchi loyihalar uy xo'jaliklarining ushbu xizmatlarga sarflanadigan xarajatlarini kamaytiradi. Masalan, profilaktik tibbiyot loyihalari kasalliklarning oldini olib, davolash xarajatlarini tejaydi.


Energiya samaradorligini oshirish:

Energetika loyihalari (masalan, quyosh panellari o'rnatish) energiya xarajatlarini kamaytiradi, bu ayniqsa kam ta'minlangan oilalar uchun katta yordam hisoblanadi.


Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati:

Arzon va shaffof moliyaviy xizmatlar (mikrokreditlar, jamg'arma hisoblari, sug'urta) orqali odamlar qimmatbaho norasmiy kreditlardan qochishi va kutilmagan xarajatlarni qoplashi mumkin.

3-rasm. Xarajatlarni kamaytirish mexanizmlari



4-rasm. Aktivlar va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mexanizmlari



5-rasm. Ijtimoiy kapital va institutsional ta'sir mexanizmlari

XULOSA

Loyihalarning moliyaviy farovonlikka ta'sir mexanizmlari kompleks bo'lib, ular daromadlarni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, aktivlarni shakllantirish, moliyaviy xavflarni boshqarish, ijtimoiy kapitalni mustahkamlash va institutsional o'zgarishlar orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlarni tushunish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan loyihalarni yanada samarali ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Har bir loyiha o'ziga xos konteksti va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ushbu mexanizmlar turlicha ustuvorlikka ega bo'lishi va turlicha intensivlikda namoyon bo'lishi mumkin.

Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan loyihalar aholining

moliyaviy farovonligini oshirishda nafaqat bevosita iqtisodiy foydalar, balki ijtimoiy kapitalni mustahkamlash va institutsional imkoniyatlarni kengaytirish orqali ham muhim rol o'ynaydi. Yuqorida muhokama qilingan loyihalarning moliyaviy farovonlikka ta'sir mexanizmlari shuni ko'rsatadiki, daromadlarni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, aktivlarni shakllantirish va xavflarni boshqarishdan tashqari, ijtimoiy birlik va samarali boshqaruv ham ushbu jarayonning ajralmas qismidir.

Loyihalar aholiga yangi ish o'rinlari yaratish, kasbiy ko'nikmalarni berish, bozorlarga kirishni yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali daromadlarni ko'paytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular

asosiy xizmatlarga kirishni osonlashtirish va energiya samaradorligini oshirish hisobiga xarajatlarni kamaytiradi. Loyihalar shuningdek, jamg'armalarni rag'batlantirish va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish orqali aktivlarni shakllantirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nihoyat, jamoaviy harakatlarni rag'batlantirish va mahalliy boshqaruvni mustahkamlash orqali ijtimoiy kapitalni oshirish loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, kambag'allikni qisqartirish loyihalarining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar beriladi:

Loyihalar bir nechta ta'sir mexanizmlarini (masalan, kasbiy ta'limni mikrokreditlash bilan birlashtirish) bir vaqtning o'zida qamrab olishi kerak. Bu sinergetik effekt yaratib, moliyaviy farovonlikka kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Loyihalar mahalliy jamoalarning o'ziga xos ehtiyojlari va resurslariga qarab individual tarzda ishlab chiqilishi va moslashtirilishi zarur. "Bir o'lcham hamma uchun to'g'ri keladi" yondashuvi samarasiz bo'lishi mumkin.

Raqamli moliyaviy xizmatlar (mobil banking, onlayn to'lovlar) va elektron platformalar (masalan, onlayn ta'lim kurslari) kabi zamonaviy texnologiyalarni loyiha doirasiga kiritish moliyaviy

xizmatlarga kirishni osonlashtirishi va xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

Loyihalar nafaqat qisqa muddatli yutuqlarga, balki uzoq muddatli barqarorlikka ham yo'naltirilishi kerak. Bu loyihalar tugaganidan keyin ham ularning foydalarining saqlanib qolishini ta'minlash uchun mahalliy salohiyatni oshirish va institutsional mexanizmlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Gender tenglikni rag'batlantirish asnosida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalar moliyaviy farovonlikni oshirishda sezilarli natijalar beradi, chunki ayollar ko'pincha daromadlarini oila farovonligi uchun sarflaydi.

Loyihalarning ta'sirini muntazam ravishda monitoring qilish va baholash ularning samaradorligini tushunish, kamchiliklarni aniqlash va kelgusi loyihalarni yaxshilash uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Jeffrey Sachs - "The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time" (2022)
<https://www.amazon.com/End-Poverty-Economic-Possibilities-Time/dp/0143036581>
(Amazon.com)
2. Muhammad Yunus – "Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty" (2020)
(Goodreads.com)
https://www.goodreads.com/book/show/28841.Banker_to_the_Poor

3. Muhammad Yunus – "Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism" (2007)
<https://www.amazon.com/Creating-World-Without-Poverty-Capitalism/dp/1586486676>
(Amazon.com)
4. Muhammad Yunus – "A World of Three Zeros: The New Economics of Zero Poverty, Zero Unemployment, and Zero Net Carbon Emissions" (2021)
https://www.goodreads.com/book/show/28841.Banker_to_the_Poor
5. Kamolov, Dostonbek. (2023). GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM. 1. 4-9. 10.5281/zenodo.10433143.
6. Meiirkhan, Spanov & Kamolov, Dostonbek. (2023). MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN
СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ В ОБЛАСТИ ДЕМОКРАТИИ И ПРАВСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ. 1. 168-172. 10.5281/zenodo.10113202.
7. Tirkashev U. THE NEGATIVE IMPACT OF INFLATION IN THE WORLD ON THE WELL-BEING OF THE POPULATION, THE COST OF PRODUCTS AND SERVICES //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 26-30.
8. Tirkashev U. IQTISODIY O 'SISH DARAJASINI IFODALOVCHI KO 'RSATKICHLAR TIZIMI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 66-69.
9. Tirkashev U., Lutfullayeva M. YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK AFZALLIKLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 284-286.
10. Kamolov, Dostonbek. (2023). ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННАЯ СРЕДА ОБЩЕСТВА. 1. 128-133. 10.5281/zenodo.10003781.
11. Kamolov, Dostonbek. (2023). ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN.
12. Kamolov D. JIZZAX VILOYATIDA TURIZM KLASITERI RIVOJLANISHINING HUDUDNING IJTIMOY-IQTISODIY SALOHİYATIGA TA'SIRINI BAHOLASH: STRATEGIK YONDASHUV VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 48-52.
13. Kamolov D. VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 372-374.
14. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.
15. Khudoyarov R., Kamolov D., Azamatov B. Economic growth, business circulation and economic development //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 21-24.
16. Kamolov D., Asrayev S. STATE POLICY FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 353-361.

